



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING
YANGI BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

1. B.B. Ma'murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2. Z.M. Muqimov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. G.R. Akramova – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. X.A. Xaitov – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
6. U.S.Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
7. D.B.Axmedova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
8. G.B.Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.R.Mirxanova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.A.Saidova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
11. Y.U.Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
12. Sh.Sh.Nizomova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
13. N.H.Hojiyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
14. M.U.Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
15. N.A.Bafoyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. N.O. Avazova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
17. S.T. Latipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. M.M. Bafayev – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;
2. M.L. Umedjanova – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini;
3. U.S. Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
4. F.R.Rustamov – Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
5. L.F. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
6. M.Y. Ro'ziyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
7. Sh.M. Istamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
8. M.B. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.B. Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.R. Xalilova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
11. M.U. Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
12. F.K. Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
13. N.N. Mirjonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
14. M.Y. Latifova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
15. M.A. Tilavova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. M.V. Jabborova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

GOMER ASARLARIDA QAHRAMONLIK VA INSONIYLIK TIMSOLI

San'atova Nishona Sa'natovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi yunon adabiyotining yirik namoyondasi Gomer asarlarida qahramonlik, insoniylik, jasorat va vijdon kabi fazilatlarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. "Illiada" va "Odisseya" dostonlari misolida inson ruhiyati, orzu – umidlari, hayot sinovlari va taqdirga munosabati yoritilgan. Asarda qahramonlik nafaqat jangdagi jasorat, balki insoniylik va sabr- toqat orqali ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Gomer, "Illiada", "Odisseya", qahramonlik, insoniylik, jasorat, qadriyat.

Qadimgi yunon adabiyoti jahon adabiyoti tarixidagi shunday asarlar sirasiga kiradiki, ular inson tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Bu adabiyotda qahramonlik, or- nomus, vatanparvarlik, sadoqat va insoniylik kabi yuksak tushunchalar asosiy o'rinda turadi. Shu an'anani yaratgan va butun dunyoga tanitgan ulug' shoir – Gomer hisoblanadi. Uning "Illiada" va "Odisseya" dostonlari nafaqat yunon xalqining, balki butun insoniyatning ma'naviy boyligiga aylangan. Gomer asarlarida inson faqat g'olib yoki mag'lub emas, balki histuyg'ularga ega, xatirlarga yo'l qo'yadigan, lekin har safar o'zini tiklay oladigan inson sifatida tasvirlanadi. Uning qahramonlari jasoratli bo'lish bilan birga, yuragida mehr sadoqat va vijdon tuyg'ularini saqlaydi. Shu jihatdan Gomer dostonlari bugungi kunda ham dolzarb, chunki unda inson tabiatining eng muhim jihatlari – kuch va mehr, g'urur va sadoqat, aql va sabr uyg'unlashgan.[1, 2007]. Gomerning "Illiada" va "Odisseya" dostonlarida qahramonlik va insoniylik qanday tasvirlanganligi, bu ikki fazilat o'rtasidagi uyg'unlik hamda shoirning asarlari orqali yetkazgan g'oyaviy ma'nosi haqida fikr yuritiladi[2,2015].

Gomer qadimgi yunon adabiyotining eng ulug' shoirlaridan biri hisoblanadi. U yaratgan "Illiada" va "Odisseya" dostonlari nafaqat o'z davrida, balki butun insoniyat tarixida epik adabiyotning poydevorini yaratgan asarlardir. Bu dostonlar orqali shoir inson hayotining mazmuni, jasorat va sadoqat, vatanoarvarlik va insoniylik haqida chuqur falsafiy fikrlarni ifodalagan. Gomer asarlaridagi qahramonlik – bu shunchaki urushda g'alaba qozonish emas, balki o'z burchini ado etish, do'stlarga sadiqlik va vijdon oldidagi halollikdir.

"Illiada" dostoni Troya urushi voqealariga bag'ishlangan bo'lib, unda inson ruhiyati, g'urur va vafoning turli ko'rinishlari aks etadi. Asardagi eng mashhur qahramonlardan biri – Axilles. Axillesning jangdagi mardligi qahramonlik ramzi bo'lsa-da, uning do'sti Patrokl o'limidan so'ng ko'rsatgan og'riqli his - tuyg'ulari insoniylikning eng tabiiy ifodasidir[3, 2018]. Asarda yana bir kuchli obraz – Gektor. U Troya shahrining himoyachisi, vatanparvar inson sifatida gavdalanadi. Gomer Gektor obrazi orqali shuni ko'rsatadiki, qahramonlik bu nafaqat qilich bilan kurashish, balki yurakdagi muhabbatni, insoniylikni yo'qotmaslikdir. Gomer asarlarida jasorat va insoniylik bir-biridan ajralmaydi.

"Illiada" da qahramonlik ko'proq jang orqali tasvirlansa[4,2021], "Odisseya" da bu fazilat aql, sabr va donolik orqali ifodalanadi. Odissey uzoq yillar davomida vatanga qaytish yo'lida sinovkardan o'tgan inson. U jangchi emas, balki sinovlar orqali yetilgan, hayotdan saboq olgan qahramondir. Odissey dengizdagi xavflar, sehrli orollar, sirli mavjudotlar orasida sabr va zukkolik bilan yo'l topadi. Gomer Axilles va Gektor, Odissey va Penelopa kabi qahramonlar orqali insoniylikning turli ko'rinishlarini ochadi.

Gomer asarlari insoniyat tarixida qahramonlik va insoniylikni eng go'zal tarzda ifodalagan yodgorliklardandir. Uning qahramonlari hayotiylikning murakkab sinovlaridan o'tadi, lekin insoniylikni yo'qotmaydi. Gomer bizga shuni o'rgatadi: haqiqiy jasorat qilich bilan emas, yurakdagi pok niyat bilan o'lchanadi. Shu bois "Illiada" va "Odisseya" dostonlari asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmay har bir o'quvchiga hayot saboqlari, insonlik, sabr va sadoqat timsoli bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gomer. Odissey. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2007.
2. Rahmonov M. Qadimgi yunon adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan, 2015.
4. Mirzaahmedova, D. Gomer dostonlarida inson obrazi va axloqiy qadriyatlar. "Filologiya masalalari" jurnali, №2, 2021.
5. Valiyevna, J. M. (2024). The Artistic Perfection of Cosmic Images in the Works of Yusuf Khos Hajib and Navoi. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 153-158.
6. Jabborova, M. (2024). MUMTOZ SHE'RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA TIMSOLLANISHI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(1), 48-52.
7. SHE'RIYATIDA, M. J. Z., & TIMSOLLARMUSHTARAKLIGI, I. I. V. K. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS.-2022. T, 2(18), 209-211.